

BOSHLANG‘ICH TA’LIM PEDAGOGIKASINING
ILMIY TADQIQOT METODLARI

Normurodova Adiba Alisher qizi

Qarshi Xalqaro Universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Doniyorova Sharofat Alisherxon qizi

Qarshi Xalqaro Universiteti boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogika fanining ilmiy- tadqiqot metodlari va ularning qay tarzda qo‘llanilishi haqida so‘z boradi. Ilmiy- tadqiqot metodlari ta’lim tizimining takomillashuviga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: pedagog, ilmiy- tadqiqot metodlari, zamonaviy sharoit, shaxs, mazmun va g‘oya.

Barcha fanlar o‘zining ilmiy – tadqiqot metodlariga ega. Bu metodlar orqali esa u o‘zining mazmun va mohiyatini, g‘oyaviyligini boyitib boradi. Ilmiy – tadqiqot metodlari pedagoglarga nimani o‘rgatish kerakligi va qay tarzda o‘rgatish kerakligi haqidagi fikrni ilgari suradi va shuni o‘rgatadi. Bundan tashqari kimni qanday tarbiyalash va qaysi tarbiya jarayoniga ahamiyat qaratish kerak degan masalani ham o‘z ichiga oladi. Pedagogikaning ilmiy – tadqiqot metodlari o‘zining maqsad va vazifalariga to‘g‘ri keladigan metodlar bilan uzviy ravishda mazmunan bog‘lanib boyib boradi. Ilmiy – tadqiqot metodlari mukammal va to‘g‘ri tanlansa ta’lim va tarbiya tizimi va uning takomillashuvi ham shu darajada yaxshilanib boradi.

Pedagogikaning imiy – tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalashni, o‘zi qiziqqan yo‘nalishlarda yoki muayyan yo‘nalishda unga puxta va chuqur bilimlarni berishni o‘rgatadi. Shu bilan birgalikda har qanday jarayonlarning ichki va tashqi mohiyatini anglab yetishni o‘rgatadi va hayotdagi qonuniyatlarning o‘rnini o‘rgatadigan metod usuli hisoblanadi. Hozirgi zamonaviy sharoitlarda pedagogik yo‘nalishdagi tadqiqotlarni quyidagi metodlardan foydalangan holda amalga oshirilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi
2. Suhbat metodi
3. Anketa metodi
4. Intervyu metodi
5. Ta’lim muassasalari hujjatlarini tahlil qilish metodi
6. Test metodi
7. Pedagogik tahlil metodi
8. Bolalar ijodini o‘rganish metodi

9. Pedagogik tajriba metodi
10. Matematik - statik metodi

Pedagogik kuzatish metodi. Bu metodni qo'llash jarayonida o'rganilayotgan muammo holati aniqlanadi so'ngra metodni boshlashdan oldingi va oxirida chiqgan ko'rsatgichlar o'rtasidagi farq belgilab olinadi. Pedagogik kuzatish metodi o'ziga xos murakkab xususiyatlariga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ya'ni bunda kuzatish aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi davomli va to'xtovsiz amalga oshirilishi va oxirida natijani qo'lga kiritishga ishonchi komil bo'lishidan iborat hisoblanadi. Kuzatish metodini olib borayotganda mazkur metod ta'im va tarbiyaning sifatini oshirishga qaratilgan va shaxsni shakllantirishga yo'nalgan bo'lsa bu metodning o'rni va ahamiyati yanada oshadi. Pedagogik kuzatish metodidan foydalanayotgan vaqtida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun kuzatuvchiga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Kuzatuv jarayonida aniq maqsadga ega bo'lish;
2. Kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
3. Kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
4. Har bir holatning mohiyatni sinchiklab o'rganish;
5. Xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Bu metod kuzatishimiz jarayonida olingen ma'lumotlarni boyitadi, ma'lum bir muammoga yechim topishga yordam beradi. Suhbat metodi pedagogning maqsadiga to'g'ri keladigan holda yakka, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkazilishi mumkin. Suhbat metodidan qilinadigan maqsad imkoniyatlarni to'liq holda ishlata olish va natijaga erishish hisoblanadi.

Anketa metodi. Ushbu metod yordami bilan yuqorida keltirib o'tilgan metodlardan olingen jarayonlarni yanada boyitish mumkin bo'ladi. Anketa metodi savollar asosidagi metod hisoblanadi hamda shaxslar o'rtasidagi muloqotni olib boradi. Kuzatilyotgan va o'rganilayotgan muammoning yoki jarayonning maqsadiga qarab anketa savollari tuzib chiqiladi. Anketa savollari ikki xil tarzda tuzilishi mumkin. 1) Ochiq turdag'i savollar - bu savollarga javob beruvchi shaxs erkin fikrlarini bayon eta olishi va batafsil yoritib berishi mumkin. 2) Yopiq turdag'i savollar - bu turdag'i savollarga javob beruvchi tomonidan "ha", "yo'q", "bilmadim", "qisman to'g'ri keladi" kabi javob variantlarini berishi mumkin bo'ladi.

Intervyu metodi. Mazkur metod biron – bir hodisaga, muammoga, jarayonga

tegishli bo‘lgan va uning ayni bir jihatlarini ochib beradi va munosabatlar bildirishni ta’minlaydigan metod hisoblanadi. Intyervyu metodi bir - biriga ma’noviy va mazmun jihatidan to‘g‘ri keladigan ixcham shakldagi ikkinchi tomonga noqulaylik tug‘dirmaydigan savollar yig‘indisini havola etish orqali olib boriladi. Intervyu metodi jarayonida savollarga nisbatan berilgan javoblarga pedagog yoki tadqiqotchi o‘z fikrini yoki munosabatini bildirishi metodning samaradorligini yanada oshiradi.

Ta’lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi. Pedagogik tekshirish ishi olib borilayotgan vaqtida ta’lim muassasasi hujjatlarining faoliyatini yoritib beruvchi ma’lumotlarni tekshirib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ta’lim muassasasi faoliyatini yoritib beruvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: o‘quv dasturi, o‘qituvchi va o‘quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, sinf jurnallari, muassasa jihozlari qayd etilgan daftар va h.k misol bo‘ladi.

Test metodi. Bu metod yuqorida sanab o‘tilgan metodlardan farq qiladi. Mazkur metod test tuzuvchidan aynan bir fanga yoki kasbiy faoliyatga qaratilgan va aniq javob variantiga ega bo‘lgan test savollarini tuzishni talab qiladi. Ushbu metod shaxsning olgan amaliy va nazariy bilimlari va malakalarini aniqlashga yordam beradi. Bu metodning afzallik tomonlari vaqt tejaladi, aniq javob variant bo‘ladi. Lekin bu metod ayrim kamchilikllarga ega. Kamchilik tomoni shundan iboratki, javoblar aksariyat hollarda yozma tarzda olinadi, test savollarini ishlayotgan shaxs javob variantlaridan birini tanlashi shart bo‘ladi va oxirida o‘z fikrini to‘liq holda ifoda eta olmasligi bilan cheklanib qoladi.

Ishontirish metodlari. O‘quvchilarni odob-axloq ruhida tarbiyalashda eng ko‘p qo‘llaniladigan asosiy metodlardan biri ishontirish metodidir. Ishontirish deb, o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash va mustahkamlash, xarakter hamda xulqlaridagi salbiy tomonlarni yo‘qotish maqsadida ularning ongi, tuyg‘usi va irodasiga ta’sir ko‘rsatishga aytildi. Ishontirish metodi o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy, g‘oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyalashda va ularning xarakterini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi ishontirish metodini birligina o‘quvchilargagina emas, balki butun jamoaga ham qo‘llashi mumkin. Ishontirish metodi o‘quvchilar jamoasida sog‘lom jamoatchilik fikrini vujudga keltirishga yordam beradi, axloq normalariga, axloq qonun-qoidalariga va ayrim o‘quvchilarning xatti-harakatlariga tengdoshlari tomonidan to‘g‘ri baho bera bilishni tarbiyalaydi. Jumladan, ishontirish metodi qo‘llanilganda tushuntirish, uqtirish, o‘git-nasihat, maslahat berish, iltimos va istak, buyruq va talab, suhbat, ma’ruza va munozaralar kabi shakllardan foydalilanadi. O‘git-nasihat haqidagi ma’lumotlar ifodalananadi.

O‘qituvchi-pedagoglar va tarbiyachilarning jonli so‘zi asosida o‘quvchilar shaxsini g‘oyaviy va ma’naviy-axloqiy shakllantirishning ta’sirchan metodi

hisoblanadi. Hikoya qilinadigan mavzu o‘quvchilar uchun dolzarb, shaxsni ma’naviy ishonch, ijobjiy his-tuyg‘ular vujudga keltirishga olib kelishi kerak. Masalan, o‘qituvchi-pedagog boshqa sinf yoki sinf jamoasi barcha fanlardan a’lo baholarga o‘qiyotganligini va tartib-intizomi yaxshiligini maroq bilan gapirib bersa, buning samaradorligini o‘quvchilarning qanday tinglayotganiga qarab, tekshirish mumkin. Agar o‘quvchilar — biz ham o‘qishda va intizomda namuna-ibrat bo‘lamiz! — degan umumiy istak bildirsa, demak, o‘qituvchi-pedagogning hikoyasi o‘quvchilar ongiga yetib borgan va bunga javoban o‘qish hamda intizomda maqsad yo‘lida faoliyat ko‘rsatishga tayyorgarlik tuyg‘usini keltirib chiqaradi. Suhbat o‘quvchilarни ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashda keng qo‘llanib kelinmoqda. Suhbat vaqtida o‘quvchi-talabalar passiv tinglovchilar emas, balki, muhokama qilinayotgan mavzular bo‘yicha faol ishtirokchilarga aylanadi. Suhbat vaqtida o‘qituvchi-pedagoglar, tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarning shaxsiga xos xususiyatiga, tajribasiga, ularning bilimiga tayanishi lozim. O‘tkazilayotgan suhbat o‘quvchilar uchun ahamiyatliligi hisobga olinishi zarurdir. Yangi materiallarni tanlash, tarbiyalanuvchilarни o‘ylashga, mazkur, masala bo‘yicha o‘z bilimlarini orttirishga yordam beradi. O‘qituvchi-pedagogning o‘zi qanchalik kam gapisra, o‘quvchilar dunyosiga shunchalik yaxshiroq kirib borishi, ular bilan barobar ajablanishi, quvonishi lozim, shunda suhbat muvaffaqiyatlari olib boriladi. Suhbat natijasida qabul qilingan axloqiy me’yor keyinchalik o‘quvchilar xulq-atvori va faoliyatida amalga oshirilishi lozim. Va keyingi davrga mo‘ljallangan o‘z xulq-atvorini kuzatishlar bilan bog‘liq bo‘lgan topshiriqlar berish imkoniyati tug‘iladi.

Rag‘batlantirish metodi — biron-bir omilning tarbiyalanuvchiga ta’sirini kuchaytirish hamda o‘quvchi-talabalarning shaxsini rivojlantirish va ijobjiy xatti-harakatlarini faollashtirish hamda baholash maqsadida qo‘llaniladi. Masalan, mustaqil O‘zbekiston Respublikasida milliy mafkuraning g‘oyaviy ma’nosini sifatida o‘quvchi-talabalar shaxsida umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish maqsad qilib qo‘yilgan. Shuning uchun ham tarbiyadagi rag‘batlantirish va jazolash metodi o‘quvchi-talabalardagi ijobjiy xislatlarni rivojlantirishda, ularning ijobjiy fazilatlarini takomillashtirishda vosita bo‘lmog‘i lozim. Rag‘batlantirish va jazolash metodida o‘quvchi-talabalar shaxsi emas, balki ayni vaqtidagi xatti-harakatlari, qiliqlari, tarbiyalanuvchining individual xususiyati, hodisa yuz berayotgan vaziyat, sabab-oqibatlar nazarda tutiladi. Rag‘batlantirish tarbiyalanuvchilarga quvonch, qoniqish, qanoatlanish kechinmalarini paydo qiladi, tetiklik va g‘ayrat bag‘ishlaydi, o‘z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi, o‘z faoliyati va xulqiga mas’uliyatini oshiradi. Rag‘batlantirish yoshlarning axloqiy tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi. Rag‘batlantirish o‘quvchilarning ruhini ko‘taradi, ularni tetiklantiradi, g‘ayratiga g‘ayrat qo‘sadi, xulqi va xatti-harakatida yangidan-yangi muvaffaqiyatlarga erishishga otlaniradi va

ularga ma'naviy oziq beradi. O'quvchilarning har bir yaxshi xulqini o'z vaqtida rag'batlantirish katta ahamiyatga egadir. O'z xulqiga ijobiy baho berilganini va ma'qullanganini ko'rgan o'quvchi quvonadi, yana ham yaxshi xatti-harakatlar sari intiladi. Rag'batlantirishning shakllariga ma'qullah, ko'nglini ko'tarish, ishonch bildirish, maqtash, mukofotlash, qayd qilish, og'zaki va yozma tashakkur bildirish kabilarni kiritish mumkin. Rag'batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo'llanishi lozim. Har qanday rag'batlantirish o'quvchining jamoa oldidagi chinakam xizmatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Rag'batlantirish vaqtida o'quvchining jamoada tutgan o'rmini hisobga olish va u ketma-ket bo'lmasligi kerak. Haddan oshirib maqtash, jamoaga nisbatan taqqoslash talabchanlikni bo'shashtirib yuborishga, o'quvchi-talabada manmanlik, xudbinlik sifatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Rag'batlantirishda o'quvchi-talabaning muvaffaqiyati bilan birga uning jamoadagi o'rni, axloqiy qiyofasi, shuningdek, mehnatga, jamoa topshiriqlariga, jamoaning o'ziga munosabati borasidagi jamoa fikrini inobatga olish ham talab etiladi. Oila, ta'lim muassasasi va o'qituvchi-pedagoglar jamoasi o'rtasida o'quvchilar shaxsiga va ularning xulqiga baho berishda bir xil talab bo'lishi nihoyatda zarurdir. Zero, tarbiyalanuvchining xulqiga baho berishda o'quvchi-pedagog o'rtasida kelishmovchilik chiqmasligi uchun o'qituvchi-pedagog va tarbiyachilar haqqoniy baho berishi kerak.

Jazolash metodlari — bu o'quvchilarning xatti-harakatlari va faoliyatiga salbiy baho berish. Jazo berish axloq me'yorlariga qarama-qarshi faoliyat va xatti-harakatlarni muhokama etishni ifodalaydi. Jazo berish noma'qul xatti-harakatlarning oldini olish, axloqni tuzatish, jamoa oldida uyalishi, o'zini gunohkor deb bilish hissini uyg'otishi mumkin. Jamoa tomonidan yoki uni qo'llab-quvvatlashi asosida jazolash metodlari ham xilma-xil bo'lib, ular jumlasiga tanbeh berish, koyish, uyaltirish, qizartirish, xatti-harakatlarni jamoa o'rtasida muhokama qilish, muayyan faoliyatdan chetlashtirish va boshqalar kiradi.

Jazo — bu o'quvchilarning o'z xulqi va harakatidagi nojo'yalik hamda kamchiliklarni anglashiga, tugatishiga, yaramas harakatlardan, sho'xliklardan o'zlarini tiyishiga yordam beradi.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqot olib borilayotgan jarayonda mazkur metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning pedagogik va psixologik tomonidan o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat. Tadqiqotchi o'zining ilgari surayotgan g'oyasini nazariy jihatdan haqqoniy ekanligini isbotlab berishga xizmat qiladi bu metod.

Bolalar ijodini o'rganish metodi. Ushbu metod orqali o'quvchilardagi muayyan narsalarga bo'lgan qiziqishlarini, layoqatini, qobiliyatini va bundan tashqari ma'lum bir fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari qay darajada ekanligini bilish maqsadida bolalar ijodini o'rganish metodi qo'llaniladi. Bu

metodni samarali bo‘lishi uchun bizga o‘quvchilar tomonidan yozilgan ijodiy ishlar, kundaliklar, insholar va yozma ishlar yordam beradi. Metodning afzalligi shundan iboratki bu metod faqat bir o‘quvchiga xos bo‘lgan individual imkoniyatlarni ko‘ra olishga, baholashga va uni to‘g‘ri rivojlantirishga yo‘naltiradi.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy – tadqiqot metodlari o‘qituvchining pedagogik faoliyatida kerak bo‘ladigan mahoratlarini oshirishga aynan bir ilmiy- tadqiqot metodlaridan foydalanishayotgan vaqtida tadqiqotning samaradorlik statistikasini yanada ko‘tarishga yordam beradi va o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, bolalar psixologiyasini inobatga olgan holda, jarayonni tashkil qilishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik . –T. “Sano standart” nashriyoti. 2017
2. Narmatov,D. & Haydarov, S (2021). Tarix fanini o‘qitishda Ispaniya XV-XVII asrlardagi tarixi.
3. S.N. Djurayeva, N.S. Turdiyeva, A.I. Baxronova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi – o‘quv qo‘llanma. Buxoro – 2021 (15-22-betlar), (25-38-betlar)
4. [https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/pedagogik-tadqiqot funksiyalari va metodlari](https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/pedagogik-tadqiqot-funksiyalari-va-metodlari).
5. <https://new.tdpu.uz/news/1647>.